

XIZMAT KO'RSATISH SOXASIDA XODIMLARNI BOSHQARISH MASALALARI.

Muminova Durdona Saydikadirovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, MBA Fakulteti Magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17337560>

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizdagi so'nggi o'zgarishlar va islohotlar dasturini amalga oshirishdan kelib chiqqan holda banklarda xodimlarni boshqarishning milliy hamda jaxon standartlaridan kelib chiqqan xolda mehnat kodeksiga mos ravishda yanada takomillashtirish banklar faoliyatida xodimlarni boshqarish masalalari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: xodimlarni boshqarish, xizmat ko'rsatish, bank, iqtisodiyot, rivojlanish.

Muvaffaqiyatli biznes nafaqat moddiy, nomoddiy va moliyaviy, balki insoniy resurslarni samarali rejalashtirish va ulardan unumli foydalanish bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish to'grisidagi 100 ta maqsadlar ichida xizmat ko'rsatish soxalarining har biriga alohida maqsadlar qo'yilib ularni bajarilish ijrosi haqida ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekistonda barcha sohalarda bo'lgani kabi xizmat ko'rsatish soxalari moliya bozori, shu jumladan, bank sektorida o'tkazilayotgan islohotlar tufayli xizmat ko'rsatish sohasida sezilarli oldinga qarab siljish va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar mustaqillik yillarida jahon andozalariga mos keluvchi bank tizimini bosqichma-bosqich barpo etish bilan hamohang tarzda davom ettirilmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasida xodimlarni boshqarishning bir qancha yo'llari mavjud. Xodimlarni boshqarishga: Xodimlarini Ishga olish, tanlash va yollash. Rezyumelarini olib intervyu o'tkazish, suxbatga chaqirib, suxbat vaqtida savollar berish. Suxbatdan o'tgan kadrni sinov muddatiga qo'yish va ishga olish. Korxonaning tashkiliy madaniyati, xar bir xodim ishga joylashgan tashkilotida albatta tashkiliy madaniyat qanday ko'rinishda va o'ziga moslilik darajasidan kelib chiqib ishga joylashadi. Kadrlar moslashuvi va ishga adaptatsiya jarayonlari. Bu tashkilot xodimlarini ish mazmuni va shartlariga, shuningdek, tashkilotning ijtimoiy muhiti bilan tanishtirish va moslashtirishni o'z ichiga qamrab oladi. Xodimlarni mehnatga moslashtirishni turli ko'rinishlarda ko'rib chiqiladi va ularni baholanadi. Xodimlarni baholash va attestatsiyadan o'tkazish, xodimlarni baholashda amalda eng yaxshi natijalar turli baholash usullarini birlashtirish natijasida olinadi. Bu natija Kompleks baholash - bu xodimning individual fazilatlari, qobiliyatlari, xatti-harakatlari va ish faoliyatini o'rganishning ko'p bosqichli ketma ket davom etadigan jarayon hisoblanadi. Xodimlarni boshqarish faqat yakka tartibda olib borilmaydi, ularda Jamoa ko'rinishidagi boshqaruv ham amalga oshiriladi. Xizmat ko'rsatish soxasida Jamoalarni avval shakllantirib olinadi, keyin shakllantirilgan jamoani rivojlantiriladi. Xar bir ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlar huquqiy jixatdan me'yor va talablar belgilab quyilgan. Buning uchun har bir fuqaro o'z huquq va majburuyatlarini bilishi shulardan chetlashmagan holda faoliyat olib borishi zarur. Xizmat ko'rsatish soxasining barcha vakillari Mexnat Kodekslari bilan alohida tanishib chiqishlari maqsadga muvofiq ish hisoblanadi.

Xulasa o'rnida aytadigan bo'lsak xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari va xususan, tijorat banklarida xodimlarni boshqarish jarayoni hali ham ko'plab muammolarni o'z ichiga oladi:

xodimlar almashinuvi yuqoriligi, motivatsiya va rag'batlantirish tizimining yetarlicha takomillashmaganligi, adaptatsiya va kasbiy rivojlanishning sustligi, rahbarlarning yetarlicha jalb qilinmasligi, ERP tizimlaridan samarali foydalanilmasligi xodimlarni ishlash jarayonida ko'plab muammolar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi
2. Маслов Е. В. Управление персоналом предприятия / Е. В. Маслов. - М. : ИНФРА-М, 2012. – 204 с. ISBN 978-5-39
3. Mirzaev F.I. "Banklararo raqobat: mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari" T: "Moliya", 2018 yil.